

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 338.43 (368.52)

NURULLAEV ABDULAZIZ SIROJIDDINOVICH

**BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGI
RISKLARINI SUG‘URTALASH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy maslahatchi:
i.f.d, prof. Shennaev X.M.**

Toshkent–2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	19
1.1. Sug'urta faoliyati rivojlanishining ilmiy-uslubiy jihatlari.....	19
1.2. Iqlim o'zgarishi fonida qishloq xo'jaligi faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklar tasnifi va sug'urtaviy himoyalash zaruriyati.....	35
1.3. Barqaror rivojlanish sharoitida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashning nazariy va uslubiy asoslari.....	48
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	64
II BOB. SUG'URTA BOZORI FAOLIYATI VA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARIDAN SUG'URTALASHNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	66
2.1. Sug'urta faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy va institutsional asoslari.....	67
2.2. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining rivojlanish bosqichlari tahlili.....	79
2.3. Qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashni rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	97
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	114
III BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI RISKLARDAN SUG'URTALASH HOLATI TAHLILI.....	116
3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rni va dinamik o'zgarishlar tahlili.....	116
3.2. Iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash va moliyaviy rag'batlantirish ko'rsatkichlari tahlili.....	133

3.3. Qishloq xo'jaligi faoliyatini turli risklardan sug'urtalash holati tahlili.....	147
3.4. Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash bo'yicha ahamiyatga molik tajribalar.....	167
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	190
IV BOB. QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARIDAN SUG'URTALASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	192
4.1. Qishloq xo'jaligini sug'urtalovchi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini baholash va qishloq xo'jaligini sug'urtalashni subsidiyalash tizimini takomillashtirish.....	192
4.2. Iqlim o'zgarishi ta'sirida tabiiy risklarni raqamli texnologiyalar orqali aniqlash va sug'urtalash uslubiyotini takomillashtirish.....	211
4.3. Qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda aktuar hisoblar asosida tariflarni hisoblash metodologiyasini takomillashtirish.....	229
4.4. Qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashni ekonometrik modellashtirish orqali prognoz senariylarini ishlab chiqish.....	248
To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar.....	264
XULOSA.....	266
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	271
ILOVALAR.....	298

KIRISH

(iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish sharoitida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, ushbu yo'nalish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishlari, bozor beqarorligi hamda boshqa noaniqliklar ta'siridan moliyaviy jihatdan himoyalaniishini ta'minlaydi. Sug'urta mexanizmlarining ilmiy asoslangan holda takomillashuvi nafaqat fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy risklarni baholash vositalarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalari va davlat o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlari yaratiladi, bu esa barqaror iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi sifatida qishloq xo'jaligi sektorining raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, "jahonda 2,33 milliard insonlar muntazam ravishda yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlanmayotgan bo'lsa, 864 million kishi jiddiy ravishda oziq-ovqat xavfsizligiga duchor bo'lmoqda"¹. "Global iqlim o'zgarishi ta'siri bilan bog'liq iqlimiy risklar keyingi o'n yillarda 5-7 foizgacha ortib borayotganligi insoniyatni tashvishga solmoqda. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar ta'sirida 2023-yilda sodir bo'lgan 142 ta tabiiy ofatdan ko'rilgan zararning 108 mlrd. AQSh dollari xalqaro sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lab berildi"². Iqlimiy risklar ta'sirida sodir bo'layotgan tabiiy xavf-xatarlar ta'sirini bartaraf etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda sug'urtaviy himoyalash orqali masalaga yechim topish borasidagi ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

¹ <https://www.fao.org/interactive/state-of-food-security-nutrition/en>

² <https://www.swissre.com/press-release/New-record-of-142-natural-catastrophes-accumulates-to-USD-108-billion-insured-losses-in-2023-finds-Swiss-Re-Institute/a2512914-6d3a-492e-a190-aac37fecal5b>

Dunyoda global sanoatlashuv jarayonining tezlashishi, atmosferadagi issiqxona gazlari hajmining ortishi hamda iqlim o'zgarishining tezlashishi bilan bog'liq risklar zahirida sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga o'sib borishiga asosiy sabab, antropogen omillar ta'siridagi risklarning ortishi, ekstremal va texnogen risklar xavfining ortishi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini keskin pasayishi, chorva hayvonlari boqiladigan maydonlarning qisqarib borishi va chorva hayvonlari uchun ozuqa bazasining kamayishi kabi tabiiy ofatlar bilan bog'liq risklardan sug'urtaviy himoyalash orqali sug'urtalanuvchilarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan respublikamiz taraqqiyoti yo'lida qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmonida "Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish" bo'yicha belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvani sug'urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etish kabi vazifalardan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligini sug'urtalashga bo'lgan vazifalarning aniq belgilanganligidan dalolat beradi³. Shu jihatdan, qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashni inklyuziv rivojlantirish borasida tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyatga ega. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash korxonalari va iste'molchilarga yetkazib berishdagi risklarning mavjudligi, qishloq xo'jaligini sug'urtalashda sug'urta bozorida monopol mavqeining mavjudligi, mahalliy sug'urta kompaniyalarning qishloq xo'jaligini sug'urtalashga bo'lgan qiziqishlarining pastligi yoki litsenziyalash talablarining murakkabligi, sug'urta tariflarining yuqoriligi, sug'urta tovonlarini to'lashda ortiqcha ma'muriy to'siqlar, qishloq xo'jaligini sug'urtalashda alohida qonuniy bazaning mavjud emasligi va huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy faolligini oshirish hamda qishloq

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" gi 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

xo'jaligini sug'urtalashga keng jalb qilish, qishloq xo'jaligini sug'urtalashda investorlarni olib kirish, qishloq xo'jaligini sug'urtalash borasida sug'urtalanuvchilarning ishonchlarini oshirish, qishloq xo'jaligini sug'urtalashning milliy reytingini yaratish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash, qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashning metodologik jihatdan keng o'rganilmaganligi ilmiy-tadqiqot ishining yanada dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-iyuldagi 373-son “Qishloq xo'jaligi sub'ektlariga qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda sohaga tegishli bo'lgan boshqa turdagi qonun va qonun osti hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴. Qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashni rivojlantirish yo'nalishlari bilan bog'liq vazifalar

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbaalar asosida ishlab chiqilgan: The Global Federation of Insurance Associations (GFIA) <https://www.gfiainsurance.org/>; International Insurance Society (IIS). <https://www.internationalinsurance.org/>; International Association of Insurance Supervisors (IAIS).

jahon tan olgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlari, analitik tadqiqot markazlari hamda sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi mintaqaviy va xalqaro sug'urta tashkilotlari, jumladan, The Global federation of insurance associations (GFIA), International insurance society (ISS), International associations of insurance Supervisors (IAIS), The International associations of insurance Professionals (IAIP), Federal Crop Insurance Corporation (FCIC), Risk Management Agency (U.S. Department of Agriculture (AQSh)), Great American insurance Group (GAIG), National Bureau of Economic Research (NBER), Institute for Economic Policy Research of the Stanford University (AQSh), University of Nebraska – Lincoln (AQSh), European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA), European Insurance and Reinsurance Federation (CEA), Swiss Re Institute, The Geneva Association/Insurance for better world (Shvesariya), Associations of Hungarian Insurance Companies, UNU Institute for Environment and Human Security (Germaniya), Global Index Insurance Facility (GIIF), Munich Climate Insurance Initiative (MCII), KPMG Akademiya Rossiya, Media-Informatsionnaya Gruppa (MIG), Belorusskaya assotsiatsiya straxovshikov, Belgosstrax (Belorussiya), Finansoviy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii, Rossiyskaya Natsionalnaya Perestraxovochnaya Kompaniya (Rossiya) va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan amalga oshirilmoqda.

<https://www.iaisweb.org/page/about-the-iais>; Federal Crop Insurance Corporation (FCIC). <https://www.rma.usda.gov/Federal-Crop-Insurance-Corporation>; Risk Management Agency (U.S. Department of Agriculture (AQSh)). <https://www.rma.usda.gov/about-crop-insurance/managing-your-farm-risk>; Great American Insurance Group (GAIG). <https://www.greatamericaninsurancegroup.com>; National Bureau of Economic Research (NBER). <https://www.nber.org/papers/w27564>; Institute for Economic Policy Research of the Stanford University. <https://siepr.stanford.edu/people/senior-fellows>; Department of Economics, International Association of Insurance Supervisors (IAIS). <https://www.iaisweb.org/page/supervisory-material/insurance>; [The International Association of Insurance Professionals \(IAIP\)](https://www.iaisweb.org/page/supervisory-material/insurance) <https://www.internationalinsuranceprofessionals.org/>; University of Nebraska–Lincoln (USA). <https://cap.unl.edu/news/summary-united-states>; European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA) <https://www.eiopa.europa.eu/pensions-insurance-organisation/insurance>; European Insurance and Reinsurance Federation (CEA). <https://www.insuranceeurope.eu>; Swiss Re Institute. <https://www.swissre.com/media/news-releases/nr-2021>; The Geneva Association/Insurance for a better world. <https://www.genevaassociation.org>; Association of Hungarian Insurance Companies. <https://mabisz.hu/wp-content/uploads>; UNU Institute for Environment and Human Security (Германия). <https://ehs.unu.edu/research/insurisk-assessment-tool-disaster-risk-and-readiness-for-insurance-solutions>; Global Index Insurance Facility (GIIF). <https://www.indexinsuranceforum.org/climate-insurance>; Munich Climate Insurance Initiative (MCII). <https://climate-insurance.org>; KPMG Академия Россия. <https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf>; Медиа-Информационная Группа «Страхование сегодня» (МИГ). <https://www.insur-info.ru/agro-insurance>; Белорусская ассоциация страховщиков. <https://belasin.by/insurance>; Белгосстрах. <https://bgs.by/ru/business/property/97>; Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. <http://www.fa.ru/org/faculty/fef>; Российская Национальная Перестраховочная Компания. <https://rnrc.ru/about/company>.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash sharoitida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy hamda amaliy yutuqlarga erishilgan bo'lib, xususan, qishloq xo'jaligini sug'urtalash sohasida sug'urtalanuvchilarning sug'urta sohasidagi moliyaviy savodxonligini oshirish va sug'urtalash sohasida ilmiy-tadqiqotlarni olib borishning zarurligi metodologik jihatdan asoslangan (The Global federation of insurance associations (GFIA)); iqlim o'zgarishi xavfini ortishi ta'sirida qishloq xo'jaligi risklari ta'sirini baholash va qishloq xo'jaligini sug'urtalash yo'li bilan moliyaviy barqarorlikni oshirishda sug'urta xizmatlaridan samarali foydalanish zaruriyati (International associations of insurance Supervisors (IAIS)); oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash borasidagi dasturlarni ishlab chiqadi (Federal Crop Insurance Corporation (FCIC)); iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlardan himoyalash maqsadida fermer xo'jaliklari ekinlari hosilini sug'urtalash bo'yicha talabni aniqlaydi (Great American insurance Group (GAIG)); qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva hayvonlarini turli risklardan sug'urtalashni huquqiy tartibga solishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqadi (Risk Management Agency (U.S. Department of Agriculture (AQSh)); iqlim o'zgarishi ta'sirida tabiiy ofatlar natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar oqibatlarini o'rganish va baholash bo'yicha sug'urta kompaniyalarining reyting ko'rsatkichlarini aniqlaydi (Institute for Economic Policy Research of the Stanford University (AQSh)); iqlim o'zgarishi bilan bog'liq kelajakdagi tabiiy ofatlarga sug'urta sektorining moslashishi va shunga mos sug'urta turlari va hamda uning standartlari asosida baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan (European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA)); iqlim o'zgarishiga mos sug'urta modellarini yaratish, tabiiy ofatlarning keltirayotgan moliyaviy zararlarini baholash, hamda sug'urta kompaniyalari va sug'urtalanuvchilar o'rtasida axborot almashish masalalari taklif etilgan (European Insurance and Reinsurance Federation (CEA)) Swiss Re Institute, The Geneva Association/Insurance for better world (Shvesariya), Associations of Hungarian Insurance Companies, UNU Institute for

Environment and Human Security (Germaniya), MDH davlatlarida iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash faoliyatini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan (KPMG Akademiya Rossiya, Media-Informatsionnaya Gruppya (MIG)), (Belorusskaya assotsiatsiya straxovshikov, Belgosstrax (Belorussiya)), (Finansoviy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii), (Rossiyskaya Natsionalnaya Perestraxovochnaya Kompaniya (Rossiya)).

Iqlim o'zgarishi sharoitida tabiiy ofatlar va ekstremal hodisalar sodir bo'lishi bevosita sug'urta bozoridagi sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobat muhitini shakllanishiga, texnogen va stixiyali hodisalarning sodir bo'lishi natijasiida sodir bo'layotgan moliyaviy inqirozlarni yumshatishda sug'urta faoliyatining rolini oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, xususan: xavf-xatar yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligini sug'urtalash xizmatlarini ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatlarini baholash, moliyaviy jihatdan mustahkamlash hamda sug'urta jamg'armalarini shakllantirish, qishloq xo'jaligini sug'urtalash borasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligini sug'urtalash faoliyatiga olib kirish, qishloq xo'jaligini risklardan sug'urtalash faoliyatini transformatsiyalash, barcha turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashni yanada takomillashtirish, chorva hayvonlarini sug'urtalashning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda toifalash metodologiyasini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligini risklardan sug'urtalashda parametrik sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligini risklardan sug'urtalashning nazariy va uslubiy jihatlari chet ellik tadqiqotchilardan Roman Marco Hohl, Darrell L. Hueth, William H. Furtan, Jayashree Sil, John Bosco Baguri Sumani, Xianglin Liu, Ganbaatar Jambal, Vincent H. Smith and Joseph W., Mina, Christian D., Gloria, Reneli Ann B., Benjamin L. Collier, Ramiro Iturrioz, Miranda P.M. Meuwissen, Yann de Mey, Marcel van Asseldonk, Michał Soliwoda,

Tekin A., Bahri K. & Gul, M., Ji-Le Sun, Ran Tao, Jiao Wang, Yi-Fei Wang, Jia-Yi Li kabi izlanishlar olib borgan olimlarning ishlarida to'xtalib o'tilgan⁵.

Qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash borasida mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan A.A.Pilipchuk, A.V.Nikitin, Yu.N.Paraxin, N.M.Yashina, N.V.Kirillova, M.V.Arshba, D.I.Egorov, V.V.Pokidova, I.P.Xominich, Ye.V.Dik, V.B.Gomellya, Yu.T.Axvlediani, T.I.Prosandeeva, S.N.Todorov va boshqalar tomonidan qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash masalalari va sug'urtalashga ta'sir etuvchi risklarni baholagan holda sug'urta tizimini barqaror rivojlantirishning ayrim jihatlari tadqiq qilingan⁶.

⁵ Roman Marco Hohl. *Agricultural Risk Transfer: From Insurance to Reinsurance to Capital Markets* (Wiley Finance) 1st Edition. Wiley; 1st edition (March 25, 2019). Darrell L. Hueth, William H. Furtan. *Economics of Agricultural Crop Insurance: Theory and Evidence*. Springer Science+Business Media New York 1994. Jayashree Sil. *Risk in U.S. Agriculture: Insurance, Forward Contracts, Adverse Selection and Moral Hazard*. Doctor of Philosophy in Agricultural and Resource Economics in the Graduate Division of the University of California, Berkeley. Fall 2005. 133-p.; John Bosco Baguri Sumani. *Exploring Perceptions of the Potential of Agricultural Insurance for Crop Risks Management Among Smallholder Farmers in Northern Ghana*. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the award for the degree of doctor of philosophy. At Antioch University New England-2018. 378 p.; Xianglin Liu. *Three Essays in Agricultural Insurance*. Dissertation Presented in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy in the Graduate School of The Ohio State University. The Ohio State University-2016. 100-p. Ganbaatar Jambal. *Information theoretic approach to statistics of extremes: with applications in risk analysis, insurance and environment*. Submitted to the Faculty of the College of Arts and Sciences of American University in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy In Economics. 2018 American University Washington, D.C.; Vincent H. Smith and Joseph W. Glauber. *Agricultural Insurance in Developed Countries: Where Have We Been and Where Are We Going? Applied Economic Perspectives and Policy Advance Access published August 29, 2012*. 29-p.; Olivier Mahul and Charles J. Stutley. *Government Support to Agricultural Insurance Challenges and Options for Developing Countries*. 2010 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street NW. Washington DC 20433. Reyes, Celia M.; Agbon, Adrian D.; Mina, Christian D.; Gloria, Reneli Ann B. *Agricultural insurance program: Lessons from different country experiences*. PIDS Discussion Paper Series, No. 2017-02. 35-p.; Benjamin L. Collier. *Strengthening Local Credit Markets Through Lender-Level Index Insurance*. 13 February 2019. <https://doi.org/10.1111/jori.12277>, *Journal of Risk and Insurance* 2/2020. Pages: 319-349. <https://onlinelibrary.wiley.com/toc/15396975/2020/87/2>; Ramiro Iturrioz. *Agricultural Insurance. Primer series on insurance issue 12, november 2009*. 35 p.; Miranda P.M. Meuwissen, Yann de Mey, Marcel van Asseldonk. "Prospects for agricultural insurance in Europe", *Agricultural Finance Review*, Vol. 78 Issue: 2, pp.174-182, <https://doi.org/10.1108/AFR-04-2018-093>; Michał Soliwoda. *Crop and livestock insurance in Poland reconsidered: challenges from the perspective of agricultural policy*. Paper presented at 156th EAAE Seminar. "Prospects for agricultural insurance in Europe", Wageningen UR, the Netherlands. October, 3-4, 2016.; Tekin A., Bahri K. & Gul, M. *Development of implementation of agricultural insurance in Turkey*. 2017. *Scientific Papers: Management, Economic Engineering in Agriculture and Rural Development*, 17(2): 355-364.; Klime Poposki, Gorazd Cibej and Kristina Cencic. *Report on the Inclusive Insurance. Regulatory Landscape in the CEET Region*. Published by: Access to Insurance Initiative. Eschborn, August 2021; Ji-Le Sun, Ran Tao, Jiao Wang, Yi-Fei Wang, Jia-Yi Li. *Do farmers always choose agricultural insurance against climate change risks? Economic Analysis and Policy*. Volume 81, March 2024.

⁶ Пилипчук А.А. *Экономико-статистические модели оценки рисков страховых компаний*. // 08.00.12 – Бухгалтерские учёт, статистика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2009. – 28 с.; Никитин А.В. *Государственная поддержка страхования сельскохозяйственных рисков: теория, методология и практика*. // 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами АПК и сельское хозяйство); 08.00.10. - Финансы, денежное обращение и кредит (страхование). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва. 2008. - 47 с.; Парахин Ю.Н. *Страхование в аграрной сфере: теория, методология, практика*. //08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством: (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами -

O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligini sug'urtalash faoliyatini rivojlantirish masalalari borasida iqtisodchi olimlardan X.M.Shennaev, Q.M.Qo'ldoshev, R.S.Azimov, T.M.Baymurotov, D.M.Sultanov, I.X.Abduraxmonov, N.A.Mavrulova, A.A.Yadgarov, K.T.Kalenov, I.G'.Kenjaev, G.T.Xalikulova, B.O'.Haqberdiev, D.N.Baymirzaev, D.A.Baratova, M.M.Nuralieva va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁷.

АПК и сельское хозяйство); 08.00.10 - Финансы, денежное обращение, кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических. Воронеж-2011. - 52 с.; Яшина Н.М. Обеспечение финансовой устойчивости страховой организации: теория, методология и практика. // 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва-2008. - 41 с.; Кириллова Н.В. Страхование промышленных предприятий: теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. - М.: - 2007. - с.41.; Аршба М.В. Страхование обеспечения устойчивости воспроизводственного режима функционирования сельскохозяйственных товаропроизводителей. // 08.00.10 - финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону - 2014. - 25 с.; Егоров Д.И. Страхование сельскохозяйственных рисков// 08.00.10-Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2010. - 22 стр.; Покидова В.В. Развитие страхования урожая, осуществляемого с государственной поддержкой. // 08.00.10 - финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Волгоград-2011.; Хоминич И.П., Дик Е.В. Мировой страховой рынок. //Учебник. - Москва.: КНОРУС, 2020. -400 стр.; Гомелля В.Б. Очерки экономической теории страхования / под ред. Е.В. Коломина-М.: Финансы и статистика, 2010. - 352 с.; Ахвледиани Ю.Т. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография/. - Москва: РУСАЙНС, 2017. - 236 с.; Просандеева Т.И. Особенности формирования спроса и стимулирования предложения на рынке агрострахования//Специальность: 08.00.05–Экономика и управление народным хозяйством: маркетинг. Ростов-на-Дону - 2018. 26 стр.; Тодоров С.Н. Развитие государственной поддержки страхования производственных рисков в сельском хозяйстве (на материалах Омской области). // //08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством: (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами - АПК и сельское хозяйство), 08.00.10-Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Новосибирск-2011. - 22 стр.

⁷ Шеннаев Х.М. Ўзбекистон Республикасида суғурта фаолиятини ривожлантириш йўналишлари//08.00.07– “Молия, пул муомаласи ва кредит” ихтисослиги бўйича и.ф.д. даражасини олиш учун диссертация Автореферати. ТМИ: 2021.-84 б.; Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ўзаро суғурталашнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т.: 2019. – 75 б.; Азимов Р.С. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида рискларни суғурталаш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т.: 2022. – 86 б.; Баймуратов Т.М., Султанов Д.М. Суғурта фаолиятида рисклар трансформацияси. Монография. “Иқтисод-молия”. 2021.-200 б. Абдурахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида жавобгарликни суғурталашнинг амалиётини такомиллаштириш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати.–Т.: 2010. – 20 б.; Маврулова Н.А. Суғурта компанияларининг молиявий баркарорлигини таъминлашда қайта суғуртанинг ролини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2019. – 62 б.; Yadgarov A.A. Agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Т.: 2023. – 76 б.; Каленов К.Т. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини суғурталашни ривожлантириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.:2022. - 61 б.; Кенжаев И.Ғ. Суғурта ташкилотларининг молиявий ресурсларини жойлаштириш самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2019. - 59 б.; Халикулова Г.Т. Суғурта тизими ва уни амал қилиш механизмининг такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.:2019. - 62 б.; Ҳақбердиев Б.Ў. Ўзбекистонда суғурта компанияларининг молиявий баркарорлигини таъминлаш йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.:2020. - 63 б.; Баймирзаев Д.Н. Қишлоқ хўжалигида хатарларни суғурталашнинг хорижий мамлакатлар тажрибаси.// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, 2019 йил; Баратова Д.А. Ўзбекистонда жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртасини ривожлантириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати.–Т.: 2020.–54 б.; Нуралиева М.М.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini o'rganish natijasi sifatida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash faoliyatining ilmiy-uslubiy jihatlari va qishloq xo'jaligini sug'urtalash faoliyatini ustuvor rivojlanish bosqichlarini majmuaviy tarzda hamda tizimli holda o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash faoliyatini rivojlantirishning dolzarbligi va mazkur muammoning tadqiqot ishlarida hamda sohaga tegishli ilmiy nashrlarda yetarli darajada keng o'rganilmaganligi bois ushbu muammoni tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928323 "Mintaqalar eksport salohiyatini oshirishda investitsiya dasturlaridan samarali foydalanish" mavzusidagi amaliy loyiha (2018-2020 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi barqaror rivojlanish sharoitida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

iqlim o'zgarishi fonida qishloq xo'jaligi faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarni nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etish;

barqaror rivojlanish sharoitida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligini sug'urtalashda ishtirok etuvchi kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini baholash va qishloq xo'jaligini sug'urtalashni subsidiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

iqlim o'zgarishi ta'sirida tabiiy risklarni raqamli texnologiyalar orqali aniqlash va sug'urtalash uslubiyotini takomillashtirish bo'yiyaa tavsiyalar ishlab chiqsh;

qishloq xo'jaligini risklarini sug'urtalashda aktuar hisoblar asosida risklar ta'sirini hisobga olgan holda hududiy sug'urta tariflarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashni ekonometrik modellashtirish orqali prognoz senariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi korxonalari va "O'zagrosug'urta" AJ faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo'jaligi korxonalarini turli risklardan sug'urtalash faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada nazariy-mantiqiy yondashuv, monografik kuzatuv, eksperiment tadqiqot o'tkazish, grafik, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, axborotlarni raqamlashtirish, ekonometrik modellashtirish va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrar sohadagi tabiiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy xatarlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan, qayta taqsimlovchi iqtisodiy munosabatlar tizimini xo'jalik yurituvchi subektlar daromadini barqarorlashtirish, investision faollikni rag'batlantirish va agrar sektorning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda ishtirok etuvchi kompaniyalarning moliyaviy barqarorlik darajasini "yuqori" ($MBD_{yuq} \geq 5,0$), "o'rtachadan yuqori" ($3,0 < MBD_{quyi} \leq 4,0$), "o'rta daraja" ($2,0 < MBD_{o'rta} \leq 3,0$), "past daraja" ($1,0 < MBD_{past} \leq 2,0$), "xavfli daraja" ($0,5 < MBD_{xavf} \leq 1,0$) yangi qiymat

shkalalari asosida baholash orqali uning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi imkoniyatlarning maqbul darajalari aniqlangan;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda akutuar hisoblarni qo'llagan holda tabaqalashtirilgan tarif stavkasi va o'rtacha yog'ingarchilik miqdorini brutto va netto stavkalari asosida indeks sug'urta tarif stavkasining ($2,5 < x < 10,0$) qiymatlarining maqbul darajalarini belgilash taklifi asoslangan;

iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda kombinatsiyalashgan sug'urta riski indeksi (SRI) orqali qishloq xo'jaligi risklarini baholash darajalari "juda past xavf darajasi" ($1 < \text{SRI}_{\text{jphd}} \leq 2$), "past xavf darajasi" ($2,1 < \text{SRI}_{\text{pxd}} \leq 3$), "o'rtacha xavf darajasi" ($3,1 < \text{SRI}_{\text{o'xd}} \leq 4$), "yuqori xavf darajasi" ($4,1 < \text{SRI}_{\text{yxd}} \leq 5$), "ekstremal xavf darajasi" ($5,1 < \text{SRI}_{\text{exd}} \leq 7$) sug'urtalash metodologiyasi bo'yicha maqbul darajalarini aniqlash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashning umumiy ko'rsatkichlari tendensiyalarining trend ekstrapolyasiya qilish orqali 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barqaror rivojlanish sharoitida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash faoliyatini rivojlanishi orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy himoyalaniishi asoslangan;

qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashning amaldagi holatini baholash maqsadida anketa-so'rovlari o'tkazilgan holda ekspert baholash amalga oshirilgan holda ayrim turdagi qishloq xo'jaligi sug'urta turlarini majburiy sug'urtalashga o'tkazish taklif qilingan;

iqlim o'zgarishi sharoitida stixiyali, texnogen va ekstremal ofatlardan sug'urtalash bo'yicha qayta sug'urtalashni amalga oshirish bo'yicha sug'urta xizmatlari taklif etilgan;

sug'urta bozorida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda subsidiyalashni joriy qilinishi hisobiga sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari faolligini oshirish va raqobatni shakllantirish lozimligi asoslangan;

qishloq xo'jaligini sug'urtalashda iqlimiy risklarni ball tizimi mezonlari asosida baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda raqamli xaritalar ishlab chiqilib, qishloq xo'jaligini sug'urtalashda ma'sul tashkilotlarga integratsiya qilish uslubiyoti asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida qo'llanilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalarning aniqligini ta'minlab beruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi, "O'zagrosug'urta" AJ va boshqa tadqiqotga aloqador bo'lgan tashkilotlarning rasmiy saytida e'lon qilingan ma'lumotlari, chet el va mahalliy tadqiqotchilarining ekspert baholari hamda tadqiqotlari, xalqaro tashkilotlar nashriy manbalari, sug'urta tashkilotlarining yillik moliyaviy hisobotlari, shuningdek, tadqiqotchining shaxsiy ilmiy-tadqiqot ma'lumotlaridan tashkil topganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijasi sifatida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar hamda ular asosida shakllantirilgan takliflardan qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashning metodologik asoslarini yaratish, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini sug'urta qilish qamrovini yanada oshirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini sug'urtalash harajatlarini qisqartirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mamlakatimizda qishloq xo'jaligini sug'urtalash faoliyatini tartibga solish va takomillashtirish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan

sugʻurta faoliyatiga oid fanlarning oʻquv sillabuslarini mazmunan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakat qishloq xoʻjaligi korxonalari faoliyatini turli risklardan sugʻurtalash metodologiyasini takomillashtirish yoʻnalishlari boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga koʻra “qishloq xoʻjaligi risklaridan sugʻurtalash” tushunchasining iqtisodiy mazmunini agrar sohadagi tabiiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy xatarlar natijasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan moliyaviy yoʻqotishlarni kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan, qayta taqsimlovchi iqtisodiy munosabatlar tizimini xoʻjalik yurituvchi subektlar daromadini barqarorlashtirish, investision faollikni ragʻbatlantirish va agrar sektorning uzluksiz rivojlanishini taʼminlash nuqtai-nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti” nomli oʻquv qoʻllanmani tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrugʻi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 20 iyundagi 04/35-5-13613-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni hayotga tatbiq etish natijasida oliy taʼlim muassasalari talabalarining qishloq xoʻjaligi faoliyatini yurituvchi subʼektlar daromadini barqarorlashtirish, agrar sektorning uzluksiz rivojlanishini taʼminlash nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan hamda qishloq xoʻjaligi risklaridan sugʻurtalash tushunchasi boʻyicha nazariy bilim va koʻnikmalarini yanada chuqurlashtirish va davlat dasturlarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

qishloq xoʻjaligi risklarini sugʻurtalashda ishtirok etuvchi kompaniyalarning moliyaviy barqarorlik darajasini “yuqori” ($MBD_{yuq} \geq 5,0$), “oʻrtachadan yuqori” ($3,0 < MBD_{quyi} \leq 4,0$), “oʻrta daraja” ($2,0 < MBD_{oʻrta} \leq 3,0$), “past daraja” ($1,0 < MBD_{past} \leq 2,0$), “xavfli daraja” ($0,5 < MBD_{xavf} \leq 1,0$) yangi qiymat shkalalari asosida baholash orqali uning moliyaviy barqarorligini taʼminlovchi imkoniyatlarning maqbul darajalari aniqlash taklifi “Oʻzagrosugʻurta” AJ,

O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining faoliyatiga joriy etilgan ("O'zagrosug'urta" AJ ning 2025 yil 2 maydagi 04-09/701-sonli, O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining №060-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 20 iyundagi 04/35-5-13613-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va xizmat ko'rsatishni 10-15 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda akutuar hisoblarni qo'llagan holda tabaqalashtirilgan tarif stavkasi va o'rtacha yog'ingarchilik miqdorini brutto va netto stavkalari asosida indeks sug'urta tarif stavkasining ($2,5 < x < 10,0$) qiymatlarining maqbul darajalarini belgilash taklifi "O'zagrosug'urta" AJ, O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining faoliyatiga joriy etilgan ("O'zagrosug'urta" AJ ning 2025 yil 2 maydagi 04-09/701-sonli, O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining №060-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 20 iyundagi 04/35-5-13613-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari bo'yicha taklif qilinayotgan tabaqalashgan tarif stavkasi bo'yicha shartnomalar soni amaldagidan 3913 taga, yog'ingarchilik miqdori indeks tarif stavkasi bo'yicha shartnomalar soni amaldagidan 9276 taga ortish imkoniyati yaratilgan;

iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda kombinatsiyalashgan sug'urta riski indeksi (SRI) orqali qishloq xo'jaligi risklarini baholash darajalari "juda past xavf darajasi" ($1 < SRI_{jphd} \leq 2$), "past xavf darajasi" ($2,1 < SRI_{pxd} \leq 3$), "o'rtacha xavf darajasi" ($3,1 < SRI_{o'xd} \leq 4$), "yuqori xavf darajasi" ($4,1 < SRI_{yxd} \leq 5$), "ekstremal xavf darajasi" ($5,1 < SRI_{exd} \leq 7$) sug'urtalash metodologiyasi bo'yicha maqbul darajalarini aniqlash taklifi "O'zagrosug'urta" AJ, O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi hamda O'zbekiston Respublikasi

Iqtisodiyot va moliya vazirligining faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zagrosug‘urta” AJ ning 2025 yil 2 maydagi 04-09/701-sonli, O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining №060-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 20 iyundagi 04/35-5-13613-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalash ko‘rsatkichlarini 20-25 foizgacha oshirish imkoniyati yaratilgan;

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalashning umumiy ko‘rsatkichlari tendensiyalarining trend ekstrapolyasiya qilish orqali 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ssenariylaridan foydalanish taklifi “O‘zagrosug‘urta” AJ, O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zagrosug‘urta” AJ ning 2025 yil 2 maydagi 04-09/701-son hamda O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining №060-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2030 yilga borib pessemetik va optimistik ssenariya bo‘yicha sug‘urta mukofotlari tushumi 15 foizgacha, sug‘urta shartnomalari soni o‘rtacha hisobda 11 foizgacha ortish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 4-ta respublika va 2-ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 14-ta ilmiy ish, jumladan, 1-ta ilmiy monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10-ta maqola (9-ta mahalliy va 1-ta xorijiy nashrlarda) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 270 betni tashkil etadi.